

TASVIRIY SAN'ATNING AMALIY MASHG'ULOTLARIDA TALABALARNI O'QITISHDA VA BAHOLASHDAGI AYRIM KAMCHILIKLAR

Oltmishev Toxirjon Turgunovich

A.Qodiriy nomidagi JDPU katta o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston

e-mail:oltmishevtohir@gmail.com

Annotasiya. Tasviriy san'at fanlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda Tasviriy san'at o'qitish metodikasi — «san'at» fakultetida o'rganiladigan asosiy kurslardan biri bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarни amaliy mashg'ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omilidir. Bu amaliy mashg'ulotlar mazmuni talabalar badiiy-kasbiy bilimi, malaka va mahoratini har jihatdan mukammal (professional) va jiddiy o'zlashtirishni hamda ularni maktab o'quvchilari va kollej talabalariga badiiy ta'lim-tarbiya berish jarayonida yondasha bilishni va o'rgatishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, bilim, malaka, o'qituvchi, baho, amaliy, talaba, o'zlashtirish.

Аннотация. Методика преподавания изобразительного искусства - один из основных курсов, изучаемых на факультете "искусство" при подготовке высококвалифицированных специалистов в области изобразительного искусства, который готовит будущих педагогов на практических занятиях. Является важным фактором совершенствования подготовки. Содержание данных практических занятий направлено на то, чтобы студенты овладели художественно-профессиональными знаниями, умениями и навыками во всех аспектах в совершенстве (профессионально) и серьезно, и подходили и обучали их в процессе художественного образования и обучения школьников и студентов колледжей.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, знание, квалификация, учитель, оценка, практический, ученик, мастерство.

Annotation. Methodology of fine art teaching - one of the main courses studied at the faculty of "art" in the training of highly qualified specialists in the field of fine arts, which prepares future teachers in practical training. It is an important factor in improving the preparation. The content of these practical trainings is intended for students to master artistic-professional knowledge, skills and skills in all aspects perfectly (professionally) and seriously, and to approach and teach them in the process of providing art education and training to schoolchildren and college students. holds

Keywords: Fine art, knowledge, qualification, teacher, assessment, practical, student, mastery.

Tasviriy san'at fanlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fani «san'at» fakultetida o'rganiladigan asosiy kurslardan biri bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarni amaliy mashg'ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omilidir. Bu amaliy mashg'ulotlar mazmuni talabalar badiiy-kasbiy bilimi, malaka va mahoratini har jihatdan mukammal (professional) va jiddiy o'zlashtirishni hamda ularni maktab o'quvchilari va kollej talabalariga badiiy ta'lim-tarbiya berish jarayonida yondasha bilishni va o'rgatishni nazarda tutadi.

Mazkur maqolada tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlar vazifasini tayyorlash va uni bajarish bilan bog'liq bo'lgan muhim masalalar yoritiladi. Buni tayyorlashda fanning namunaviy dasturi va metodik ko'rsatmalariga, shuningdek, san'at fakultetida uzoq yillik mehnat tajribamizga ham asoslandik.¹

Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarining umumiy masalalari

Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarning maqsadi mazmuni badiiy ta'lim mazmunini oliv o'quv yurtlarida amalga oshirish jarayonida tasviriy san'at sohasidagi bilim materiallarni liar jihatdan mohirona (professional) va jiddiy o'zlashtirishni nazarda tutadi. Buning uchun qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik, san'at tarixi va san'atshunoslik asoslarida ko'rsatilgan bilim hamda malakalarni metodik jihatdan o'rgata olish sirlarini bilish kerak.

Bular quyidagilar: mashg'ulot o'tishning umumiy talablari; o'tiladigan mavzuga tayyorgarlik ishlarini bilish va to'g'ri amalga oshira olish, mashg'ulotni rejorashtirish; mashg'ulot o'tishning turli usul hamda uslublarini va o'z ijodiy yondashishlari; o'quvchi va yoshlarga nisbatan mehrli, hamfikr bo'la olish hamda ularning ruhiyatini o'rganib ta'lim berishda to'g'ri yondashish; mashg'ulot mazmunini o'quvchi va yoshlarga yetkaza bilish va amaliy ijodkorlikka

¹ Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi.S.Abdirasilov,N. tolipov.(4-bet)

yo'naltirish. Amaliy mashg'ulotlarni asosiy yo'nalishlari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining dars jarayonini tashkil qilish, rejalashtirish va metodik jihatdan mantiqiy ravishda amalga oshirish, sinf taxtasida bo'r bilan tasvir ishslash ko'nikma va mahoratlarini rivojlantirishga qaratilgan. Tasviriy san'at o'qitish metodikasining fan dasturida quyidagi amaliy ish mazmuni nazarda tutilgan:

1. O'quv yili uchun fan mashg'ulot mavzularining taqvimiylarini tasvirli rejalashtirilish jadvalini tayyorlash.
2. Tasviriy san'at dars turlari bo'yicha konspektini va mashg'ulot ishlanmasini ishlab chiqish.
3. Tasviriy san'at darslariga ko'rgazmali qurol eskizini tayyorlash.
4. Tasviriy san'atdan ko'rgazmali darsni bir qismini metodik jihatdan tayyorlash va uni namoyish etish.
5. Tasviriy san'at darsini tahlil etish tuzilishini o'rgatish,
6. Pedagogik tasvirlar ishslash (xomaki rasmlar, turli tasvirlash vositalar va sinf taxtasida bo'r bilan ishslash).
7. Tasviriy san'at asarlari bilan tanishtirish va ularni badiiy tahlil qilish.
8. Kurs ishining ahamiyati va tuzilishi.

Yuqorida keltirilgan amaliy vazifalar mazmuni talabalar tomonidan professor-o'qituvchi rahbarligida bajariladi. Umumiyligi o'rta ta'lim maktab va kollejlarda tasviriy san'at darslarini o'qituvchi qanday qilib tashkil etish va uni rejalashtirish malakalarini rivojlantirish yo'llari tavsiya etiladi.

Bo'lajak rassom-o'qituvchilarining o'z kasbi bo'yicha yetuk mutaxassis sifatida shakllanishini taslikil etish ta'lim jarayonining asosiy vazifasidir². Bu yuqorida keltirilgan va bajarilgan amallar o'qituvchining zimmasidagi yuklamalardir. Uzoq yillik tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki dars jarayonidagi o'qituvchining bilimi, dars o'tish mahoratining o'zi talabaning sifatlari bilim olishiga yetarli asos bo'la olmaydi. Bunga bir necha sabablari mavjud.

² Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi.S.Abdirasilov,N. tolipov.(8-9-bet).

1-sabab: Pedagog psixologlarning hisoblashlaricha o'quvchining bilim olishdagi muvaffaqiyati shartli ravishda quyidagilarga bog'iq bo'ladi:

1.50% muvaffaqiyat aql-idrok, xotira, diqqat kabi o'quvchining barqaror individual xususiyatlariiga.

2.25% muvaffaqiyat o'quvchining o'qish motivatsiyasiga (intilish, istak, hohish, maqsadiga).

3.25% o'qitish sifatiga.

Demak sifatli kadrlar tayyorlashimiz nafaqat o'qituvchilarga, qolaversa talabalarimizga ham bog'liq ekan.

2-sabab: Bu tasviriy san'at yo'nalishi talabalarining amaliy mashg'ulotlardagi (qalamtasvir, rangtasvir, xaykaltaroshlik, amaliy san'at, kompozitsiya) bilimini baholashdagi kamchiliklar deb xisoblayman. Talabalar bilimini qat'iy baholash mezonlari asosida ko'rib chiqish va keyin baholash zarur.

IV. QALAMTASVIR YOKI RANGTASVIR

Nº	Mezonlar	Maksimal ball
1	Natyurmort qog'ozga to'g'ri joylashtirilgani	0-19 gacha
2	Ufq chizig'i to'g'ri topilgani	0-19 gacha
3	Buyumlarning o'zaro nisbati to'g'ri topilgani	0-19 gacha
4	Narsalarning tekisligi to'g'ri aniqlangani	0-19 gacha
5	Naturadagi buyum hajmlari to'g'ri aks ettirilgani	0-19 gacha
6	Perspektiva qonuniyatlariga rioya qilingani	0-19 gacha
7	Buyumlardagi soya va yorug'lar to'g'ri aniqlangani	0-19 gacha
8	Buyumlarning fakturasi (gips, sopol, metall, mato, va h.k.) aks ettirilgani	0-19 gacha
9	Ishning umumilashtirilganligi	0-18 gacha
10	Qo'yilgan vazifa to'liq bajarilgani	0-19 gacha

Shu kabi namuna asosida baholash ta'lim sifatiga va talabalarning bilim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Baholash mezonlari ta'lim standartlari va malaka talabi asosida tuziladi. Hozirgi kunda talabalarning ijodiy amaliy ishlari bir-biriga taqqoslab baholash odatga aylanib qolgan bu menimcha birmuncha noto'g'ri. Talabalarning ijodiy amaliy topshiriqlarini baholash faqat malaka talablari asosida amalga oshirilishi zarur, bir talabaning ishi ikkinchisiga taqqoslanib emas. Darsdan

tashqari ko'rik tanlovlarda ijodiy ishlar bir-biriga taqqoslab baholanadi. Tanlovlarda bu ko'rinishda baholash to'g'ri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Botir Boymetov. Qalamtasvir-Musiqqa nashryoti-Toshkent 2006.
2. Azimova B.Z. Naturmort tuzish va tasvirlash. T.: O'qituvchi. 1984.
3. Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. T.: O'zbekiston, 2006.
4. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san'at. T.: Cho'lon, 2006.